

**Burxonova Madinabonu Saydkamol qizi**

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Maqolada taqdim etiluvchi Alloh madhiga bag'ishlangan bu ikki bayt Uning go'zal sifatlarini ta'riflashga asoslangan. Shu bilan birga, bu sifatlarning kelishi va shu sifatlar orqali Haqqa sano aytish Navoiyning o'sha davrdagi o'zining holatiga chambarchas bog'liq bo'lgan. Va bu ikki bayt shoirning dunyoqarashini ham yuzaga chiqargan. Shoir boshiga tushgan qiyinchiliklardan Allohnинг qutqarishini so'rab iltijo qilgan.

**Kalit so'zlar:** Sano, koshifi hol, hallol, alim, azim, bidoyat, nihoyat

**Аннотация:** Эти два стиха, посвященные хвале Бога, представленные в статье, основаны на описании Его прекрасных качеств. В то же время появление этих атрибутов и чтение Хакка посредством этих атрибутов были тесно связаны с собственным положением Навои в то время. И эти две строфы раскрыли мировоззрение поэта. Поэт молил Бога избавить его от выпавших на его долю трудностей.

**Ключевые слова:** Саны, кошифи хал, халяль, алим, азим, бидаят, наконец

**Annotation:** These two verses dedicated to the praise of God presented in the article are based on the description of His beautiful attributes. At the same time, the appearance of these attributes and the recitation of Haqq through these attributes were closely related to Navoi's own situation at that time. And these two stanzas revealed the world view of the poet. The poet begged God to save him from the difficulties that befell him.

**Key words:** Sana, koshifi hal, halal, alim, azim, bidayat, finally

Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga Samarqanddan yozgan maktubi “Masnaviy” nomi bilan mashhur. Bu asar «Xazoyin ul-maoniy»ning birinchi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

devoniga kiritilgan. Mutaxassislar uni Navoiyning Hirotdan Samarqandga jo‘nash oldidan yozgan maktubi deb hisoblaydilar.

Masnaviy o‘zaro qofiyalanuvchi ikki misradan iborat she’r shaklidir. “Masnaviy” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ikkilik”, “juft” degan ma’nolarni bildiradi. Masnaviy usuli voqeа va hodisalarni epik ko‘lamda aks ettirishga imkon bergani uchun ham doston ko‘pincha shu yo‘l bilan yoziladi. Bundan tashqari, qasida, she’riy noma va boshqa turdagи asarlar ham masnaviy shaklida yaratilishi mumkin. Masnaviy mumtoz adabiyotimizda eng ko‘p qo‘llangan. “Xamsa” (Alisher Navoiy), “Shayboniyxon” (Muhammad Solih), “Tanobchilar” (Muqimiy), “Ilm xosiyati” (Furqat) kabi asarlar masnaviy janrida yozilgan.

Masnaviy janrining taraqqiy etishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning hissasi juda katta. Navoiy turkiy adabiyotning durdonasi bo‘lgan “Xamsa” asarini masnaviy janrida yozgan. “Tarixi mulku Ajam” asarida masnaviy janri qo‘llangan. Bu asarda Navoiy Husayin Boyqoroqga maktublarini masnaviy janrida yozgan.

Alisher Navoiy ijodiyotida zamondoshi, do’sti, hammaslagi Sayyid Hasan Ardasherga bag’ishlangan masnaviy alohida o’rin tutadi. Bu masnaviy navoiyshunoslikda “Hasbi hol” nomi bilan ham yuritiladi. Asar Navoiyning Samarqandda ekanligida bitilib, Sayyid Hasan Ardasherga maktub sifatida yo’llangan. U mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf, ya’ni: fauvlun/ fauvlun/ fauvlun/ faul (V--/ V--/V--/V-) vaznida yozilgan.

“G’aroyib us-sig’ar” devoniga kiritilgan ushbu masnaviy Suyima G’aniyeva, Vohid Abdullayev<sup>1</sup> kabi olimlar tomonidan o’rganilgan.

Asar hamd, na’t, Sayyid Hasan Ardasheri ta’rifи, so’ngra Samarqandga ketish sabablari izohini o‘z ichiga olgan. Navoiy Allohga hamd aytar ekan, uning sifatlarini sharhlaydi, misollar yordamida dalillaydi:

Sano<sup>2</sup> haqqakim, koshifi hol<sup>3</sup> erur

Xirad<sup>4</sup> mushkilotig’ a, hallol<sup>5</sup> erur

<sup>1</sup>С. Фаниева. Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди) . – Т.: Фан, 1968.

Б. Абдуллаев. Навоий Самарқандда. Ўз ССР: Билим жамияти, 1967

<sup>2</sup> Sano-maqtash, maqtov, madh

<sup>3</sup> Koshifi hol- holatlarni ochuvchi, aslini biluvchi

<sup>4</sup> Xirad- aql, fikr, zehn

<sup>5</sup> Haloll- hal etuvchi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Aql mushkilotlarini hal etuvchi, holatlarni aslini biluvchi, ochuvchi Haqqa sano (maqtov ) bo'lsin.

Ushbu baytda Navoiyning “koshifi hol” va “hallol” so’zlariga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas. Navoiy Allohnинг aynan “holatlarni aslini biluvchi, ochuvchi”, “mushkilotlarni hal etuvchi” sifatlarini maqtash orqali o’zining ham holatiga bilvosita ishora qilib ketgan. Chunki Navoiy mazkur asarni yozgan vaqtida Samarqand hukmdori Abu Said Mirzo bilan o’rtasidagi munosabat ziddiyatli bo’lgan. Bunga Samarqanddagi Abu Said Mirzo yaratgan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol sabab qilib ko’rsatiladi. Navoiyshunoslikda Navoiyning Samarqandga ketish sabablari, Navoiy va Abu Said Mirzo munosabatlari masalasida bahsli jihatlar mavjud. Bobur uning Samarqandga Abu Said Mirzo tomonidan “ixroj qilinganligi”— majburan jo’natilganligini aytgan: “Bilmon, ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hiridin ixroj qildi”<sup>6</sup>. Navoiyning o’zi masnaviyda bunga ochiq ishora bermaydi. Ozod Sharafiddinov bu masala xususida quyidagicha munosabat bildiradi: “Podshoh Abusaid o’lkani, elni talab, “vahshatobod”ga aylantirgan, xalqning tirikchiligi og’irlashgan edi... Yosh shoir Abusaid Mirzoning qo’li bilan qilinib turilgan zulm,adolatsizlikni o’z ko’zi bilan ko’rdi va kundan kun chuqurroq his eta boshladi. Bu esa Alisherning Abusaid Mirzoga nafratini oshirdi”. Navoiyning Ardasherga yozgan maktub-masnaviysidagi “baytlarda ifodalangan axloqiy tanazzul va nafsoniy yirtqichlik birdaniga paydo bo’lmagan. Shuning uchun ijtimoiy hayot, iqtisod, zulm zaminida yuzaga kelgan kulfat va baxtsizliklarning hammasini Abusaidga nisbat berish to’g’ri emas. Chunki ular Abusaidgacha ham bo’lgan, uning o’limidan keyin ham yo’qolib ketmagan” ligini Ibrohim Haqqul o’zining “Alisher Navoiy va Sulton Abusaid” nomli maqolasida ta’kidlaydi. Ammo tarixda shunday hodisalar sodir bo’lganki, mamlakat tepasiga kelgan shaxs o’z davrini o’zigacha bo’lgan davrlardan-da yuksaltirishga, xalqqa yengillik yaratishga, o’z yurtidan quvilib, o’zga yurtni egallagan bo’lsa-da, o’sha yot o’lkani gullatish uchun jonini ham bergen shohlarni bilamiz. Bunga Bobur Mirzoni misol qilib keltirishimiz mumkin. Hatto uning davrida mamlakat

<sup>6</sup> I. Haqqul. Navoiy va Abusaid. O’zbek tili va adabiyoti jurnali/2015-yil 1-soni, -4-b

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

6-to’plam 2-soni aprel 2024

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

“Boburiylar sultanati” deb atalgani ham fikrimiz isbotidir. Sultanat taxti hukmdorini o’z davrining islohotchisi, oddiy xalq g’amxori, suyanchig’i deb atalar ekan, nima sababdan u o’z davridagi tanazzullar, tubanlik va razilliklarning sababchisi bo’lmas ekan? Navoiy o’zi yaratgan “Hayrat ul-abror” dostonining “Salotin bobi” da sultonning asosiy vazifasini belgilab bergen:

Bo’rini dog’i galadin dur qil,  
Suv beribon bog’ni ma’mur qil<sup>7</sup>.

Yurtdagi notinchliklarning sababkorlaridan biri sifatida o’sha davr hukmdorini ham ko’rsatishimiz o’rinlidir. Mamlakatdagi zo’ravonliklar, ilm-fan va madaniyatning orqada qolishi, asosiy e’tibor xalqning nochor ahvoliga emas, yurt sarhadlarini kengaytirish uchun jang-u jadallarga qaratilgani, shohning mulkgirligi va vahshiyona qotiliklari insonlar o’rtasida hukmron toifaga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqargan. O’lkadagi bunday holat ijod va ilm ahllarining hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatgan.

Navoiy baytda aynan shu holatlarga ishora qilib, ahvolning asosiy sabablarini biluvchi, ochib beruvchi, o’zining hamda yurt boshiga tushgan qiyinchiliklarni hal etuvchi Robbisiga duo va iltijolarini, sanolarini yo’llaydi. Navoiy boshiga tushgan qiyinchiliklar, vaziyatning og’irlashuvi bejiz emasligi, Allohning taqdiri ekanligi va bu holatni ochib, hal qilib beruvchi ham Uning o’zi ekanligini birinchi baytdaboq fodalab beradi.

Baytdagi Allohning sifatlarini ta’riflovchi aynan “koshifi hol”, “halol” so’zlarining qofiyadosh bo’lib kelishi bu sifatlarning oson esda qolishini ta’minlaydi.

Quyidagi bayt esa allohning go’zal ismlaridan bo’lgan “alim” va “azim” sifatlarining sharhiga bag’ishlangan:

Alimeki<sup>8</sup>, yo’qtur bidoyat anga  
Azimeki<sup>9</sup>, yo’qtur nihoyat anga.

Donoligi shundaki, unga boshlanish, ibtido yo’qdir. Buyukligi shundaki, unga

<sup>7</sup> А. Навоий. Ҳайрат ул-аббор. МАТ. 7-тум. Т.: Фан, 1987.

<sup>8</sup> Alim- dono

<sup>9</sup> Azim-buyuk

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

nihoyat, tugallanish yo'qdir.

Baytdagi "bidoyat" va "nihoyat" so'zlari Allohning "alim" va "azim" sifatlariga xosdir. Ushbu baytda birinchi baytga aloqadorlik ko'zga tashlanadi: Alloh barcha vaziyatlarning ochuvchisi va hal etuvchisi ekan, U bunday vaziyatlarni o'zi boshlab ham beradi, tugallab ham. Navoiyning bir g'azalida ham shu kabi misra keltirilgan:

Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,  
Anga yo'q ibrido paydo, munga yo'q intiho paydo.

Bu misralarning isboti Qur'oni Karimning bir necha o'rinalarda keltirilgan. Jumladan, "Hadid" surasida deyiladi: "U Avval, Oxir, Zohir va Botindir. U barcha narsani biluvchidir"<sup>10</sup>. Avval, ya'ni boshlanishi yo'q; oxir, ya'ni tugashi yo'q. U azaliy va abadiydir. Zohir, ya'ni uning borligi hamma narsadan bilinib turadi. Botin, ya'ni Uni bu dunyodagi beshta ma'lum sezgi a'zolari bilan ko'rib bo'lmas.

Baytning birinchi misrasidagi "alim", "bidoyat", so'zlari, ikkinchi misradagi "azim", "nihoyat" so'zlariga o'zaro ohangdosh, qofiyadosh bo'lib kelishi tarse' san'atini yuzaga chiqargan.

Alloh madhiga bag'ishlangan bu ikki bayt Uning go'zal sifatlarini ta'riflashga asoslangan. Shu bilan birga, bu sifatlarning kelishi va shu sifatlar orqali Haqqa sano aytish Navoiyning o'sha davrdagi o'zining holatiga chambarchas bog'liq bo'lган. Shoир boshiga tushgan qiyinchiliklardan Allohning qutqarishini so'rab iltijo qilgan.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сигар. МАТ.3-том.

Т.:Фан, 1988.

Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jiddlar / Mas'ul muharrir Sh. Sirojiddinov. -

Т.: Sharq, 2016.

Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. Ўз ССР: Билим жамияти, 1967

Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. - Т.: Камалак, 1991.

А. Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-том. Т.: Фан, 1987.

<sup>10</sup> A. Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasি. T.: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2001

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

6-to'plam 2-son aprel 2024

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

A. Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. T.: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2001

Хожиаҳмедов А . Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. - Т.: Шарқ НМК, 1998.

Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? - Toshkent: Sharq, 2001

Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi. -Xo'jand, 1993.

Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. - Т.: Фан, 1983.

C. Фаниева. Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди) . – Т.: Фан, 1968.

B. Абдуллаев. Навоий Самарқандда. Ўз ССР: Билим жамияти, 1967

I. Haqqul. Navoiy va Abusaid. O'zbek tili va adabiyoti jurnali/2015-yil 1-son

A. Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-том. Т.: Фан, 1987.

A. Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. T.: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2001